

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10908482>

INSON KAMOLOTIDA TAFAKKURNING SHAKLLANISHI

To‘xtayeva Zebo Sharifovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Tikuvchilik sanoatida innovatsion texnologiyalar” kafedrasи professori, pedagogika fanlari doktori

e-mail: zebo-7171@mail.ru

Gulmatova Hurriyat Sodikovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: gulmatovahurriyat012@gmail.com

Annotatsiya. Dunyoqarashning ko‘rinishlari, inson kamoloti bosqichlari va ularga mos axborot kompetensiyalariga ega o‘quvchini tayyorlashda foydalanish, bugungi yoshlarning ma’naviy tarbiyasida va milliy dunyoqarashi kengayishida insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish, yoshlarimizga shaxs kamolotida o‘quv adabiyotlari, ta’limning axborot texnologiyalari kabi omillarning ta’siri kabi masalalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: inson, kamolot, insonparvarlik, o‘quvchi-yoshlar, ta’lim-tarbiya, tarbiya masalasi, axborot kompetensiyalari, ma’naviy yetuk.

Abstract. Aspects of worldview, stages of human maturity and their use in training students with appropriate information competencies, formation of humanitarian qualities in the spiritual education of today's youth and the expansion of national worldview, the influence of factors such as educational literature and information technologies of education on the personal development of our youth were put forward.

Key words: human, maturity, humanitarianism, students-youth, education, education issue, informational competences, spiritual maturity.

Inson o‘z hayoti davomida o‘zidan oldin o‘tgan kishilarning turmush tarziga, to‘plangan bilim, ko‘nikma va malakalariga, qadriyatlariga tayanadi. Shu sababli ham dunyoqarash kishilarning axloq me’yorlari, hayotni yaxshilash borasidagi ongli intilishlari, qiziqishlari mehnat faoliyatiga va turmush tarziga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ular hayotida katta amaliy ma’no-mazmun kasb etadi.

Shuning uchun, dunyoqarashning ko‘rinishlari, inson kamoloti bosqichlari va ularga mos axborot kompetensiyalariga ega o‘quvchini tayyorlashda foydalanishda hamda ta’lim-tarbiya jarayonlarini davr talabiga mos takomillashtirishda mustahkam ma’naviy-ma’rifiy asos bo‘ladi. Shuningdek, inson kamoloti bosqichlari va ularga mos dunyoqarashlardan axborot kompetensiyalariga ega o‘quvchini tayyorlashdagi ta’lim-tarbiya jarayonida muntazam foydalanib borilishi natijasida ma’naviy yetuk, erkin va mustaqil fikrlaydigan, «XXI asr – intellektual asr»ning faol ishtirokchisi bo‘lgan mutaxassis tayyorlashga erishiladi.

Insoniyat paydo bo‘libdiki, unda inson kamoloti jarayoni davom etib kelmoqda. Ma’lumki, kishi kamoloti, uning umrini yuksak intellektual salohiyatini boyitishga bog‘liq bo‘ladi va shu asosda buyuk maqsadlar sari intiladi, jamiyat hamda davlatga foydasi tegib yashaydi, natijada uning hayot mazmuni shakllanadi. “Shaxs kamoloti ma’naviy yetuk, barkamol avlodni shakllantirish bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi va bunday jarayon u yashab turgan ijtimoiy muhit hamda unga mos tarbiya bilan belgilanadi. Bu esa shaxs, millat va jamiyatning mentalitetiga bog‘liqdir”[3].


Bu borada ustozlar tashabbusi, xalqimiz ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, ularga hurmat uyg‘otilishi, milliy an‘analarimiz va urf–odatlarimizning saqlanishi hamda mazmunan boyitilishi, shuningdek, madaniyat, san’at, ilm–fan, texnika–texnologiya, ta’lim–tarbiya har tomonlama taraqqiy etishida muhim rol o‘ynaydi.

Bizga ma’lumki, kishi tarbiyasi masalasi insoniyat paydo bo‘lganidan boshlab dolzarb muammo bo‘lib kelmoqda va tarbiyada baland cho‘qqi sari komillik kabi yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu sababli ham jamiyat taraqqiyotini komil insonlar belgilaydi. Komil inson tarbiyasida boy o‘tish ma’naviy merosimiz mavjud.

“Insonni ezgulik sari yetaklash haqidagi ta’limotlar muqaddas kitoblarimiz («Qur’oni Karim», «Hadisi Sharif», «Avesto» va shu kabilar)da doimo ulug‘lanib kelingan”[4]. Bu borada Vatanimizda o‘tmishda bu istiqbolli orzu–istiklar doimiy vazifaga aylangan va u bilan jamiyatimizning har qanday a’zosi shug‘ullanishi ham farz, ham qarz bo‘lgan. Ayniqsa, tarbiya masalasi bilan nafaqat oila boshlig‘i yoki ta’lim muassasalari mutasaddilari, balki yurtimizning donishmandlari, ziyorilari (olimlar, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, tasavvuf ilmi sohiblari va h.k.), adolatparvar hukmdorlarning ham bosh maqsadlari bo‘lgan.

Demak, buyuk bobolarmizning o‘lmas merosi bugungi yoshlarning ma’naviy tarbiyasida va, ayniqsa, ularning milliy dunyoqarashi kengayishida bitmas–tuganmas xazinadir. Ularni ibrat–namuna qilib ko‘rsatish orqali yoshlar ongida quyidagi insonparvarlik fazilatlari yanada yuksaladi: mardlik, botirlik, pahlavonlik,

mehnatsevarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bo‘lishlik, do‘stlik va muhabbat tuyg‘ulariga sadoqatli bo‘lishlik va shu kabilar.



1-rasm. Yoshlar ongida yuksaltirish lozim bo‘lgan insonparvarlik fazilatlari

Demak, “inson kamoloti va uning yuksalishida yoshlarimiz ma’naviy tarbiyasi va ilmiy dunyoqarashi kengligi, ibrat–namuna muhim rol o‘ynar ekan. Bugungi yoshlarimiz dunyoqarashini shakllantirish va yuksaltirishda ular ongiga millat, Ona tuproq, Ona Vatan, xalq va uning tarixiy ildizlari asosidagi boy milliy–ma’naviy merosimiz haqidagi ma’lumotlarni ta’lim–tarbiyaning barcha jahbalarida singdirib borishimiz lozim”[6].

Shuning bilan birga yoshlar ongida millat, milliy axloq, milliy g‘urur, milliy tarbiya, milliy salohiyat, Vatan tuyg‘usi, Vatan qayg‘usi, Vatan sog‘inchi va shu kabi tushunchalarni singdirib borish ham ularning milliy dunyoqarashini kengaytirishga asosiy omillardan biri bo‘lishligi, shubhasiz. Bunda inson kamoloti uchun milliy tarbiyamizga xos bo‘lgan mehr–oqibat, hurmat–izzat, muruvvat, or–nomus, bag‘rikenglik va shu kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Demak, milliy xususiyatlarimizga mos tarbiyani olgan va olayotgan o‘quvchi–yoshlarimiz muntazam ravishda kamol topib boraveradi hamda ularning dunyoqarashi ham unga mos ravishda yuksalib boradi.

Barkamol avlod tarbiyasining bu qayd etilgan ketma–ketligiga, O‘zbekiston ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishining beshta tamoyili asos qilib olingan bo‘lib, barkamol avlodni amaliy faoliyatgacha bo‘lgan jarayonini o‘z ichiga olgan va o‘z xususiyatiga ko‘ra barkamol avlod tarbiyasiga kompleks yondashuvdir.

Mazkur masalada yoshlarimizni tarbiyalashda va ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda shaxs ijodiy kamoloti bosqichlari hamda ulardan ta’lim–tarbiya jarayonida ibrat–namuna sifatida foydalanishga tavsiyalar berish haqidagi ma’lumotlarni yoritishni maqsad qilib oldik.

Bu borada olib borilgan ko‘p yillik ilmiy izlanishlarmiz natijalarining ko‘rsatishicha, o‘quvchi-yoshlar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda ularga shaxs ijodiy kamoloti ketma–ketligi haqida ma’lumot berish ijobiy pedagogik samaralarni berar ekan. Bu ketma–ketlik odam shaxs darajasiga erishgandan keyingi intellektual salohiyatga ega bo‘lgandan boshlab baholansa, o‘quvchi-yoshlar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkoniyati tug‘iladi va ulardan ta’lim–tarbiya jarayonida asosli ravishda foydalanishga erishiladi. Shu sababli ham o‘quvchi-yoshlar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va ularning ma’naviyatini yuksaltirishni samarali amalgalashuvda o‘quvchi-yoshlar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda turli fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkin. Natijada aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari (omillari, tashkil etuvchilari) va mohiyati o‘quvchi-yoshlar ongidan yanada mustahkam o‘rin oladi. Bu borada o‘quvchi-yoshlar ilmiy dunyoqarashning asosiy tarkiblari va farqlarigacha tahlil qilish salohiyatiga ega bo‘ldi.

Demak, yoshlarimizga shaxs kamoloti pillapoyalarini hisobga olgan holda ta’lim–tarbiya berishdagi barcha xatti–harakatlar (o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar, ta’limning axborotli texnologiyalari va h.k.)da quyidagi omillar asosiy diqqat–e’tiborda turish lozim ekan:

- ✓ milliy–ma’naviy qadriyatlarimiz haqidagi bat afsil ma’lumotlar tayyorlash, ularni yoshlarimiz ongiga singdirishga qulay holga keltirib, ya’ni axborot ko‘rinishiga keltirib tizimlarga (qomusiy va hadis ilmi olimlari, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, faylasuflar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan rasm–rusumlar va urf–odatlar, an’analar va h.k.) ajratish;
- ✓ yoshlarimizda shaxs kamolati bosqichlari asosida Vatan tuyg‘usini shakllantirish va bunda ular ongiga Ona tuproq, Ona Vatan, Vatan sog‘inchi, Vatan qayg‘usi kabi tushunchalarga hurmat uyg‘otish;

✓ yoshlar tarbiyasida «Barkamol avlod», «Komil shaxs», «Olim», «Pahlavon», «Alloma», «Mutafakkir», «Donishmand» kabi kamolat bosqichlaridan aniq dalillar asosida ibrat–namuna tizimidan keng foydalanish lozim;

✓ shaxs ijodiy kamoloti bosqichlarini o‘quvchi-yoshlar ongiga singdirishda aniq fanlardan ta’lim–tarbiya berishda qomusiy olimlar, donishmand, faylasuflar ijodi va faoliyatidan foydalanish, ijtimoiy–gumanitar fanlar bo‘yicha esa shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, hadis ilmi sohiblarini ibrat–namuna qilib ta’lim–tarbiya berish ijobiy pedagogik samaralarni beradi;

✓ o‘quvchi-yoshlar ongiga shaxs ijodiy kamoloti bosqichlarini ilmiy, ma’naviy qadriyat sifatida singdirish ularni ijodiy kamolot sari intilishiga turtki bo‘ladi va natijada ular ijtimoiy faol shaxs bo‘lishga intiladi, olimlikni va komillikni havas qiladi.

Aytish mumkinki, tarbiya inson paydo bo‘lishi bilan birga boshlanib ular uning jismonan baquvvat, ma’nan etuk insonlar bo‘lib shakllanishi doimo ulug‘lanib kelangan va jismonan baquvvat insonlarni polvon hamda ham jismonan, ham ma’naviy yetuk insonlarga pahlavon, deb nom berilgan.

Demak, inson kamolotida tafakkurning shakllangan, dunyoqarash insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida rivojlanib borgan va ular taraqqiyot jarayoni davomida turli ko‘rinishlarni olgan. Albatta, ular ko‘rinishlari o‘zining mazmun–mohiyati jihatidan ham turli yo‘nalishlarda bo‘ladi. Shu sababli ham ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish, ularning mos ko‘rinishlarini tanlash ham o‘ziga xos ijodiy jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zebo, T. X., & E’zoza, E. (2023). OLIY TA’LIMDA TALABALAR BILAN OLIB BORILADIGAN O ‘QUV-METODIK VA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(17), 489-496.
2. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(12 Part II), 44-49.
3. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. *International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT*, 7(4), 258-261.
4. Тухтаева, З. Ш., & Искандарова, Г. Б. (2014). Пути осуществления межпредметной связи и преемственности. *Молодой ученый*, (8), 884-887.

5. Тухтаева, З. Ш. (2018). Олий таълимда ихтисослик ва мутахассислик фанлар узвийлиги ва интеграциясини таъминлаш муаммолари. *Касб-хунар таълим*, (4), 21.
6. Ibragimov, U. M., & IMOMOV, B. HARRINGTON'S GENERALIZED DESIRABILITY FUNCTION FOR COMPARATIVE ANALYSIS. Бухарский инженерно-технологический институт КОНФЕРЕНЦИЯ. pp. 362-363.
7. Rustamovich, A. O. (2022, February). STAGES OF PRODUCTION OF BREAD AND BAKERY PRODUCTS IN UZBEKISTAN. In Conference Zone (pp. 355-358).
8. Bakhtiyorovna, T. B. (2022). Improving the integration of the technical department and manufacturing enterprises efficiency. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(11), 118-123.
- Negmatovna, N. G., & Erkinovna, U. V. (2022). MEANING OF SPIRITUAL HERITAGE OF KHODJA ALI ROMITANIY. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).